

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

MAXSUS SON (2021-yil, MAY)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

МУНДАРИЖА

МУСИҚА	5
Бахром МАДРИМОВ. Из истории макомов	5
Ismatilla QUDRATOV, Azamat RAJABOV. Talabalarni dirijorlik faoliyatiga tayyorlash tizimi va uning samaradorligi.....	8
Davron RUZIYEV. Ansambli ijrochilarida obrazli musiqiy tafakkurni shakllantirish	11
Rajabov TUXTASIN. Uzluksez ta'lim tizimida buxoro bolalar folklor kushiklarini urgatish jarayonining samaradorligi	16
Ulug'bek MIRSHAYEV. O'quvchi-yoshlarni musiqa orqali komil inson qilib tarbiyalash.....	20
Shoira NOROVA. O'zbek an'anaviy qo'shiqchiligida ustoz-shogird ijro yo'llari	23
Ibrogim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati	25
Farrux NURIJLAEV, Nigora NURIJLAEVA. Buxoro folklor kushiklarining uziga xos ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.....	28
Ilhom QUSHAEV, Isлом AXTAMOV. Musiqiy pedagogik ta'limda an'anaviy musiqiy merosning urni	32
To'liqjon MUXAMEDOV. Umumta'lim maktablarining musiqa to'garaklarida qo'shiq o'rgatish usullari	35
O'g'iloy RAMAZONOVA. An'anaviy xonandalik va hofizlik san'ati	38
Malohat RAHMATOVA. Umumta'lim maktablarida xalq musiqa ijodiyoti ansamblini tashkil etish yo'llari.....	41
Sherzod SHAMSIEV. Maktab o'quvchilarida musiqa ijodkorlik malakasini o'stirish yo'llari	44
Komil XOLIQOV. Musiqa ta'limida ustoz-shogird munosabati.....	46
Zarnigor ALAYEVA. Xalq qo'shiqlari asosida boshlangich sinf o'quvchilarining nutqiy malakasini o'stirish	49
Sadritdin GULOV. Umumta'lim maktablarida musiqa to'garagini tashkil etish metodlari	51
O'ktam IBODOV. O'quvchilarning musiqiy badiiy didini o'stirishga qo'yiladigan talablar	53
Ravshan RAXIMOV. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni ..	55
Nurbek RAHMATOV, Vazira ATAeva. Fortepiano fanini o'qitishda innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar.....	58
Maxsuda AXMEDOVA. Uquvchilarda uzbek musiqa folklor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning psixologik asoslari.....	61
Maxsuda AXMEDOVA. Uquvchilarda uzbek musiqa folklori haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik muammolari	64
TASVIRIY SAN'AT.....	66
Nodir YDGAPOV. Bujajak chizmachilik uqituvchilarining kasbiy kunikmalarini kompyuter animatsion modellar vositasida shakllantirish muammolari	66
Tolib SOBIROV. Tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning maqsad va vazifalari	69
Dilshod MAMATOV. Umumiy urta ta'lim maktab chizmachilik darslarida kompyuter grafikasidan foydalanish metodikasi	72
Dilshod MAMATOV, Sevara NURMURODOVA. Oliy ta'lim tizimida talabalarning tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilish muammolari	75
Dilshod MAMATOV, Zarnigor RO'ZIMURODOVA. Chizmachilik darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muammolari	77
Suxrob ABDULLAEV. Kreativniy podhod k osnavam risunka buduschih spetsialistov napravleniya obrazovaniya izobrazitel'nogo iskusstva i inzhenernoy grafiki.....	81
Barot AZIMOV. Tasviriy san'at ta'limida pedagogik texnologiyalar	84
Muzaffar AVLIYAKULOV. Talabalarning bilimlarini tezkor baholashda individual test topshiriqlaridan foydalanish, ularni nazorat qilish va baholash.....	88
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Xalq amaliy bezak san'ati fanini o'qitish orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish	91
Gulnora XAKIMOVA. Maktablarda tasviriy san'at darslarini tashkil etishda uquvchilarning kreativlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish	95
Muxaiye AZIMOVA. Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi "Qatagon kurbonlari hotirasi" muzeyi faoliyati va universitet ravnaqi iylida kushgan hissasi	101
Muhayyo AZIMOVA. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllaridan biri sifatida treninglardan foydalanish	105

Dilshod MAMATOVBuxoro davlat universiteti
tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrası dotsenti**Sevara NURMURODOVA**Buxoro davlat universiteti
magistri**OLIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING TASVIRIY SAN'AT FANLARIDAN
MUSTAQIL TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH MUAMMOLARI**

Maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishdagi muammolar, va mustaqil ishlarni tashkil qilishda professor-o'qituvchilarning vazifalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: talaba, mustaqil ish, professor-o'qituvchi, metodik qo'llanma, mustaqil faoliyat, moddiy-texnik va dasturiy taminot, pedagogic texnologiya.

В статье рассматриваются проблемы организации самостоятельной работы студентов в системе высшего образования, а также роль профессоров и преподавателей в организации самостоятельной работы.

Ключевые слова: студент, самостоятельная работа, профессор-преподаватель, методическое пособие, самостоятельная деятельность, логистика и программное обеспечение, педагогическая технология.

The article discusses the problems in the organization of independent work of students in the higher education system, and the role of professors and teachers in the organization of independent work.

Keywords: student, independent work, professor-teacher, methodical manual, independent activity, logistics and software, pedagogical technology.

Kirish. Hozirgi zamon talablariga binoan oliy o'quv yurtlari oldida turgan eng muhim vazifalardan biri jahon standartlari talablariga javob bera oladigan bilimlil, zukko va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir.

Yuqoridagilarni nazarda tutib bugun talabalar faoliyatida mustaqil ta'limni joriy etish davr talabi. Mustaqil ta'lim deyilganda o'quv materiallarini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshata bilish vazifalari va mustaqil fikr bo'ladigan qilib o'rgatish tushuniladi.

Asosiy qism. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabani mustaqil ishlashiga undovchi motivlarni aniqlash, ularning mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Chunki axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga to'liq yetkazib bo'lmaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba faqat mustaqil shug'ullanganda va o'z ustida ishlagandagina bilimni chuqur o'zlashtiradi, ularda mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyati shakllanadi hamda ijodiy ishlashga qiziqish paydo bo'ladi. Shu sababli talabalarning mustaqil ta'lim olish jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha o'quv-uslubiy ta'minotni yaratish oily ta'lim muassasasi oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarda jamiyat taraqqiyoti oily ta'lim rivojlanishi bilan uzviy bog'langan bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalar zamirida fan va texnikaning rivojlanishi jamiyatda mustaqil ta'limga bo'lgan ehtiyojini yana kuchaytiradi. Bu ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni mustaqil bilim olishlarini yangi pog'onaga ko'tarishni taqazo qilmoqda.

Kafedralar professor-o'qituvchilariga fanlardan talabalar mustaqil ishlarini bajarishini tashkil etishda quyidagi talablar qo'yiladi:

Misol uchun chizma geometriya fanidan:

a) fanning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talabalar mustaqil ishlari mazmuni va hajmini me'yoriy-metodik hujjatlarga tayanib asoslash;

b) talabalar mustaqil ishlarini tabaqalashtirilgan holda rejalashtirish hamda tematikasini shakllantirish;

d) talabalar mustaqil ishlarini fanlarning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda va talablari asosida mavzudan o'tgan sari murakkablashtirib borish tamoyili asosida tayyorlash;

e) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha umumta'lim, umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan talabalar mustaqil ishlarning mazmuni va murakkablik darajasini tahlil etish va shu asosda fanlardan talabalar mustaqil ishlari dasturini ishlab chiqish.

Talabalar mustaqil ishlarini rejalashtirish jarayoniga boshqarishda asosiy mas’uliyat fan o’qituvchisi zimmasiga yuklanadi. O’qituvchi tomonidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darsning modeli aniqlanadi, o’quv maqsadlari (o’qituvchining va identiv o’quv maqsadlari) shakllantiriladi.

Shu asosda har bir asosiy savol bo’yicha mustaqil ish topshiriqlari tuziladi hamda o’quv mashg’ulotlari jarayonida talabalar faoliyatini boshqarish mustaqil ishga jalb etish, nazorat qilish, rag’batlantirish, baholash, xulosalash kabi bosqichlarni puxta tayyorlashga erishiladi. Fan bo’yicha o’quv dasturi talabalar mustaqil ishlarini rejalashtirishda asosiy manba hisoblanadi.

Talabalar mustaqil ishlarini bajarish jarayoni loyihalashtirilayotganda talabalarda o’z-o’zini boshqarish va nazorat qilish ko’nikmalarini shakllantirishi e’tiborga olinadi. Talabalar mustaqil ishlarini o’qituvchining o’quv dasturida fan bo’yicha amalga oshiriladigan ishlar to’la aks ettiriladi.

Muhokamalar va natijalar. Talabalar mustaqil ishlarini amalga oshirishda samaradorlik ko’p jihatdan topshiriqlarning to’g’ri rejalashtirilganligiga, aniq maqsadni mo’ljallab tayyorlanganligiga, tarqatma va o’quv-metodik materiallarning sifatiga har tomonlama bog’liq.

Moddiy-texnik va dasturiy taminotning talabalar mustaqil ishlarining tashkil qilishda roli kattaligini e’tiborga olgan holda mustaqil ishlarni bajarishdagi samaradorlikni o’quv- metodik va axborot ta’minoti sifatiga aloqadorligi qonuniyatlarini ilmiy-metodik jihatdan o’rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu o’rinda o’quv-metodik adabiyotlar, ma’ruza matnlar, o’quv-metodik majmualar me’yoriy o’quv metodik hujjatlar, topshiriqlar to’plami, ilmiy, ilmiy–metodik hamda davriy nashrlarni alohida e’tiborga olish zarur.

Talabalar mustaqil ishlari samaradorligining fan o’qituvchilarning uslubiy nuqtayi nazardan puxta bilimga egaligi va ularning pedagogik mahoratiga bog’lanishi ham o’rganilishi zarur bo’lgan masalalardandir.

Talabalar ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganligi ularda yuqori darajadagi faollik hamda mustaqillikning shakllanganligi muhim omillaridan hisoblanadi. Ularda ijodiy qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishda mustaqil ta’limning katta ahamiyatga va imkoniyatlarga ega ekanligi masalalari J.Tolipovanning ilmiy-metodik ishlarida atroflicha tahlil etilgan.

Talabalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda o’quv fani mazmunining asosiy ahamiyatga ega ekanligini e’tiborga olgan holda, o’qituvchi tomonidan o’quv materiallarni bayon etishda eksperimental faktlar va ularning fan nazariyasi bilan bog’lanishi hamda qanday tajribalar asosida tasdiqlanishini to’la tushuntirish talab qilinadi. Mustaqil ta’lim olish talabalarda ijodiy faoliyatni faollashtiradi, o’zlashtirgan bilimlari chuqurlashib boradi, aqliy qobiliyatining takomillashishini ta’minlaydi.

Mustaqil ta’limning yoki uning muhim tarkibiy qismi bo’lgan talabalar mustaqil ishlarining reja asosida puxta ishlangan dastur asosida bajarilishi erkin fikrlashni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega bo’ladi.

Mustaqil ta’lim samaradorligini oshirish uchun dastlabki kurslarda talabalar fanlardan auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini tashkil etishning o’ziga xos xususiyatlari, kutubxonada adabiyotlardan va internetdan foydalanib turish zarur.

Bu ishlar kafedralar professor-o’qituvchilari tomonidan reja asosida amalga oshirilishi talab etiladi.

Bugungi zamonaviy kadrlarga qo’yilgan talablarda chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlangan sohasi bo’yicha mustaqil faoliyat ko’rsata oladigan, o’z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to’g’ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, talabalar mustaqil ishlashga o’rgatish ko’p jihatdan fan o’qituvchisiga bog’liq. Agar professor-o’qituvchilar bu jarayonga mas’uliyat bilan yondashib, tegishli nizom va yo’riqnomalar asosida ishlarni tashkil qilsalar va bunga oliy ta’lim muassasida yetarli sharoit va imkoniyatlar bo’lgandagina yuqori natijalarga erishiladi.

Shuni unutmazlik lozimki, bo’lajak mutaxassisni ishlab chiqarishda mustaqil faoliyatini yurita olish ko’nikmasi faqat mustaqil bilim olish hamda uni amalda sinab hozirgi kun talabalariga javob berishiga layoqatli bo’ladi.

Adabiyotlar

1. Шаламов В. В организация самостоятельной работы в образовательных учреждениях. – “Проект Ахей”, 2008.
2. Болтаева М. Дадамирзаев М. Мустақил иш – таълимнинг фаол шакли ва методи сифатида\ Педагогик таълим. 2008 4-сон 32-36 бетлар
3. Беляева А. Управление самостоятельной работой студентов\ Высшее образование в России 2003 №6. – С. 105-109

